
TOSHLOQLIK CHYEMPIONLAR MUNOSIB KUTIB OLINDI

Joriy yilning 18-22 oktyabr kunlari Samarqand viloyatida sportning "Turon" yakkakurashi (U-11) yoshli o'smirlar o'rtasida O'zbekiston chempionati sport musobaqalari o'tkazildi. Quvonarlisi ushbu musobaqalarda Toshloqlik 3 nafar sportchilar Muhammadjon Mo'yidinjonov 1-o'rin, Ro'zimuhammad Komilov 2-o'rin, Muhammadjon Haydaraliyev 2-o'rinni qo'lga kiritib g'olib va sovrindorlar safidan joy oldilar.

9-umumiy o'rta ta'lim maktabida musobaqa ishtirokchilari va sovrindorlari tantanali ravishda kutib olindi. Tadbirda tuman hokimi o'rinbosari E.Madaminov, tuman IIB boshlig'i o'rinbosari M.Dehqonov va Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi rahbari D.Yuldashevlar hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Tadbirda so'z olgan tuman hokimi o'rinbosari E.Madaminov musobaqada ishtirok etgan sportchilar va ularning ota-onalarini samimiy qutlab, erishilgan natijalarda sportchilarning murabbiyi Shoxjaxon Nabijonovning ham xizmatlari katta ekanligini ta'kidlab o'tdi. Tadbir yakunida musobaqa sovrindorlari hamda murabbiy munosib taqdirlandi.

2023-11-01 16:20:18